

KO'P YADROLI ARENLAR PIROLIZI. ANTRASEN VA ANTRAXINON HOSILALARI.

L.R.Jo'rayeva

dotsent

Zoirov Suxrob Jamshid o'g'li

O'roqov Alisherbek Toshmurodovich


talaba

Buxoro davlat texnika universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15447936>

Bugungi kunda ko'p yadroli aromatik uglevodorodlar va ular asosida olinadigan turli mahsulotlarga sanoatda keng qo'llanilish hisobiga talab ortib bormoqda. Antrasen, antraxinon va ularning hosilalaridan asosan bo'yovchi moddalar, fungitsidlar, akkaratsidlar kabi zaharli kimyo vositalari va h.k. materiallar ishlab chiqariladi, shu bilan birga ular asosida turli polimer materiallar ham olish imkoniyatlari ma'lum. Ko'p yadroli arenlar asosida olinadigan ionalmashinish smolalari turli selektivlikga egaligi bilan ajralib turadi. Ion almashinish smolalari yani ionitlar Uglevodorodlar pirolizdan olingan va qayta ishlangan mahsulot bo'lib bugungi kunda organik tabiatga ega bo'lgan chiqindilarni qayta ishlashning qulay usuli pirolizdir. Dunyo bo'yicha millionlab tonna organik tabiatli chiqindilar poleanlarda yig'ilib yotadi va atrof-muhitga katta zarar keltiradi. Piroliz jarayoni yordamida chiqindilarni qattiq, suyuq, gazsimon birikmalarga aylantirish va foydalanish har tomonlama foydali hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilarning izlanishlarida piroliz jarayoni asosida yoqilg'i olishning turli usullarini ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi muammolar va to'siqlarning qisqacha tavsiflari keltirilgan. Yana bir izlanuvchilar o'z maqolalarida keltirgan ma'lumotlarida polimer materiallar termik pirolizi tadqiqot natijalari keltirilgan. Polimer materiallarini qayta ishlashda jarayonni 500-900°C haroratlarda olib borish maqsadga muvofiqligi ko'rsatilgan. Olib borilgan tajribalar natijalariga ko'ra shunday sharoitda uglevodorodli polimer mahsulotlar asosan gaz mahsulot tarkibi CH_4 va CO , N_2 , O_2 bo'lishi, suyuq mahsulot tarkibi yoqilg'i moy mahsulotlari, qattiq mahsulot tarkibi asosan saja, koks va mineral qo'shimchalardan iborat.

Odatda maqsadga qarab piroliz jarayoni havo ishtirokida yoki havosiz muhitda olib boriladi va xom ashyo turi, hamda haroratga qarab jarayon tezligi tanlanadi. Havo ishtirokida olib boriladigan piroliz jarayonlari xom ashyoning yonish reaksiyasiga nisbatan stexiometrik nisbatga qarab hajmiy nisbat tanlanadi. Xom ashyoga nisbatan havo miqdori havosiz piroliz jarayoni uchun nolga teng, yonish jarayoni uchun esa bir va undan yuqori bo'ladi. Havo



ishtirokida parchalash jarayoni uchun esa nol bilan bir orasida bo'ladi va albatta xom ashyo turi olinadigan mahsulot turiga qarab nisbat tanlanadi. Bugungi kunda piroliz jarayoni ikkilamchi mahsulotlari aniq qo'llanilish sohasiga ega emas va aksariyat hollarda yoqilg'i sifatida bug' qozonlarida qo'llaniladi. Rossiya davlatida yiliga 320 ming tonnadan ortiq piroliz jarayoni ikkilamchi mahsulotlari hosil bo'ladi. Belorusiyada faoliyat yurg'izadigan OAJ "Polimer" zavodida yiliga 12 – 16 ming tonna naftalin, antrasen va uning gomologlari ishlab chiqariladi. Belarus olimlari pirokondensat tarkibida 225 dan ortiq individual moddalar borligini xromatografik usulda aniqlashgan. Analiz natijalariga muvofiq pirokondensat tarkibida 67% gacha aromatik birikmalar, ayniqsa antrasen va uning gomologlari 11% gacha uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримова З. М. и др. УГЛЕВОДОРОДЛАРНИНГ ПИРОЛИЗ ЖАРАЁНЛАРИ /ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 19. – №. 6. – С. 6-10.
- 2 Orifjon K., Zilola K. INVESTIGATION OF THE PROCESS OF OBTAINING ADDITIVE FOR GYPSUMBOARD BASED ON POLYMETHYLENENAPHTHALINE CARBOXYLIC ACIDS //Universum: технические науки. – 2023. – №. 4-7 (109). – С. 55-59.
- 3.Мухамадиева К. Б., Каримова З. М. Математический аппарат процесс ов криообработки растительных материалов //Universum: технические науки. – 2020. – №. 6-2 (75). – С. 73-75.
4. Sharipov J. et al. Increasing the resistance of the cutting tool during heat treatment and coating //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – Т. 2432. – №. 1. – С. 050042.
5. Makhmudovna K. Z. Investigation of the Influence of the Nature of the Solvent on the Properties of Solutions of Grafted Triacetate Copolymers //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 6. – С. 86-89.
6. Makhmudovna K. Z., Anvarovich O. A. Mathematical apparatus for the cryoprocessing of plant materials epra International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed. – 2021. – Т. 7. – №. 4.
7. Каримова З. М. СТРОЕНИЕ КОМПЛЕКСОВ ПЕРЕХОДНЫХ МЕТАЛЛОВ С АЦИЛ-ТИО-АЦИЛГИДРАЗОНАМИ И ТИОСЕМИКАРБАЗОНАМИ ДИАЦЕТИЛА //Интернаука. – 2017. – №. 7-2. – С. 5-8.
- 8.Каримова З. М. СТРОЕНИЕ КОМПЛЕКСОВ НИКЕЛЯ (II) И МЕДИ (II) С ТИОБЕНЗОИЛ-ГИДРАЗОНАМИ β -ДИКЕТОНОВ //Интернаука. – 2018. – №. 14-2. – С. 37-39.9





9. Zilola K. STUDY OF BY-PRODUCTS COMPOSITION AND SYNTHESIS OF CARBON ACIDS //Universum: технические науки. – 2024. – Т. 10. – №. 12 (129). – С. 13-16.
10. Makhmudovna K. Z. EFFECTS OF LOCAL ADSORBENTS FOR THE PURIFICATION OF COTTON OIL AND ITS PROCESSING PRODUCTS //Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. – 2024. – Т. 11. – №. 02. – С. 321-324.

